

ALISHER NAVOIY BADIY MEROSIDA TASAVVUFİY-FALSAFIY QARASHLAR VA INSON KAMOLOTI KONSEPSIYASI

Abdumajitova Nozima

Farg’ona davlat universiteti

**Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek
tili yo’nalishi 2-bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20051722>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy badiiy merosida aks etgan tasavvufiy-falsafiy qarashlar hamda inson kamoloti konsepsiyasi kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida shoir ijodining g’oyaviy manbalari sifatida Qur’on oyatlari va Hadis ilmi, shuningdek, tasavvuf falsafasining nazariy tamoyillari aniqlanadi hamda ularning badiiy-estetik talqini ochib beriladi. Maqolada, xususan, Navoiy asarlarida komil inson konsepsiyasining shakllanishi, uning axloqiy, ruhiy va irfoniy asoslari izchil yoritiladi. Shoirning Xamsa, Nasoyim ul-muhabbat kabi asarlari misolida tasavvufiy g’oyalar — ilohiy muhabbat, nafsni poklash, ruhiy kamolot va ma’naviy yetuklik masalalari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Navoiy badiiy merosi Sharq mumtoz adabiyotida tasavvufiy-falsafiy tafakkur bilan badiiy ifodaning uzviy uyg’unlashgan yuksak namunasi bo’lib, unda inson kamoloti g’oyasi markaziy o’rin egallaydi. Mazkur maqola Navoiy merosining zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy tafakkur rivojidadagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Tasavvufiy-falsafiy tafakkur, irfoniy konsepsiya, komil inson nazariyasi, ruhiy poklanish, Qur’oniy manbalar, hadis ilmi

Alisher Navoiy badiiy merosida tasavvufiy-falsafiy qarashlar Sharq-islom adabiyotining Qur’oni karim va Hadisi sharifga tayangan ma’naviy-estetik tizimi asosida shakllangan. Bu tizimda inson kamoloti g’oyasi markaziy o’rin egallab, u shoir ijodida axloqiy, ruhiy va ma’naviy yuksalish jarayoni sifatida talqin etiladi. Navoiy uchun insonning haqiqiy qiymati uning tashqi mavqei bilan emas, balki ichki dunyosi, e’tiqodi va amal birligi bilan belgilanadi. Sharq adabiyoti an’anasida badiiy ifoda vositalarining diniy manbalarga tayangan holda shakllanishi muhim o’rin tutadi. Qur’oni karim oyatlarining ichki ritmi, ohangdorligi va mazmuniy uyg’unligi Sharq she’riyatining shakllanishiga estetik asos bo’lib xizmat qilgan. Shu jihatdan Alisher Navoiy ijodida ham Qur’oniy mazmun badiiy tafakkur bilan uyg’unlashib, insonni komillikka yetaklovchi g’oyaviy tizimni yuzaga keltiradi.

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida insonning yuksak maqomini Qur’oniy qarashlar asosida ifodalaydi. U insonni Alloh tomonidan mukarram etilgan mavjudot sifatida talqin qilib, uning ma’naviy mas’uliyatini ta’kidlaydi. Bu g’oya insonning hayotdagi o’rni va vazifasini anglashga xizmat qiladi. Shoir ijodida inson kamoloti faqat bilim yoki tashqi amal bilan emas, balki e’tiqod mustahkamligi, halollik, adolat va ichki poklik bilan belgilanadi. U insonni doimo o’z nafsini tarbiyalashga, ma’naviy jihatdan yuksalishga chaqiradi. Bu yondashuv tasavvufiy qarashlar bilan uyg’un bo’lib, insonni ruhiy kamolot sari yo’naltiradi. Alisher Navoiy shariat va e’tiqod masalasiga alohida e’tibor qaratib, insonning to’g’ri yo’ldan chiqmasligi zarurligini ta’kidlaydi. Bu fikr uning quyidagi qarashida yaqqol ifodalanadi:

“Shar’din nekim tajovuz ayladi – ilhod bil.”

Ushbu bayt Navoiy dunyoqarashida diniy me’yorlar va axloqiy tamoyillar inson hayotining asosiy yo’nalishi ekanini ko’rsatadi. Tasavvufiy mazmun Navoiy ijodida inson ichki olami va ruhiy kechinmalari orqali ochib beriladi. “Layli va Majnun” hamda “Farhod va Shirin”

dostonlarida ishq insonni o'zini anglash va ma'naviy yuksalishga eltuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Ishaq bu yerda faqat hissiy tuyg'u emas, balki insonni poklovchi va komillikka yetaklovchi ma'naviy hodisa sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Navoiy asarlarida insonning jamiyatdagi o'rni, uning axloqiy mas'uliyati va adolat tamoyillariga sodiqligi keng yoritiladi. Shoirning badiiy qarashlarida inson faqat o'z manfaatini emas, balki jamiyat va haqiqat oldidagi burchini ham anglaydigan shaxs sifatida ko'rsatiladi. Umuman olganda, Alisher Navoiy ijodida tasavvufiy-falsafiy qarashlar inson kamoloti g'oyasi bilan uzviy bog'langan yaxlit estetik va ma'naviy tizimni tashkil etadi. Bu tizim insonni axloqiy poklik, e'tiqod mustahkamligi va ma'naviy yuksalish sari yo'naltiradi hamda uni komil inson darajasiga yetkazishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy badiiy merosi Sharq-islom adabiyoti an'analari asosida shakllangan bo'lib, unda tasavvufiy-falsafiy qarashlar inson kamoloti g'oyasi bilan uzviy bog'langan holda ifodalanadi. Shoir ijodida insonning ma'naviy yetukligi, axloqiy pokligi va e'tiqod mustahkamligi asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Navoiy asarlarida Qur'on va Hadis g'oyalari badiiy tafakkur bilan uyg'unlashib, insonni komillikka yetaklovchi ma'naviy yo'l sifatida yoritiladi. Uning ijodiy konsepsiyasida ishq, sabr, adolat va fidoyilik inson ruhiy kamolotining muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy ijodi insonni ezgulik, ma'naviy yuksalish va komillikka chorlovchi yaxlit badiiy-falsafiy tizim bo'lib, u barcha davrlar uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Sakkizinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Oltinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
3. Тарозий, Шайх Аҳмад и дн Худойдод. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хази́на, 1996.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O.Navoiyshunoslik. Toshkent: Akademnashr, 2020.
5. Jabborov N. Alisher Navoiy ijodining islomiy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent, 2023. – 16-bet.
6. Avaznazarov O. R. Navoiyshunoslik: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2024.